

**QIZIL KITOBGA KIRITILGAN TANGACHAQANOTLILAR
(LEPIDOPTERA) TURKUMI VAKILLARI HAQIDA AYRIM
MA'LUMOTLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).**

Tursunova Shahlo Shodixo'jayevna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi
Raimova Malika Yormahmatovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zarafshon vohasi, jumladan Samarqand viloyati hududida uchrovchi tangachaqanotlilar turkumining O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan turlarining morfologiyasi, tarqalishi va bioekologiyasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Lepidoptera, *Paranassius staudingeri*, *Paranassius tianschanicus*, *Lycaena dicpar*, *Glaucopsche charibdis*, *Pseudsedum*, *Rhodiola*, *Rumex*, *Poligonum*, *Glacyrrhya glabra*.

Аннотация: В данной статье рассказывается о морфологии, распространении и биоэкологии видов чешуекрылых, занесенных в «Красную книгу» Узбекистана, встречающихся в Зарафшанском оазисе, включая Самаркандскую область.

Ключевые слова: Lepidoptera, *Paranassius staudingeri*, *Paranassius tianschanicus*, *Lycaena dicpar*, *Glaucopsche charibdis*, *Pseudsedum*, *Rhodiola*, *Rumex*, *Poligonum*, *Glacyrrhya glabra*.

Abstract: This article talks about the morphology, distribution and bioecology of the species of Lepidoptera included in the "Red Book" of Uzbekistan, found in the Zarafshan oasis, including the Samarkand region.

Key words: Lepidoptera, *Paranassius staudingeri*, *Paranassius tianschanicus*, *Lycaena dicpar*, *Glaucopsche charibdis*, *Pseudsedum*, *Rhodiola*, *Rumex*, *Poligonum*, *Glacyrrhya glabra*.

Tangachaqanotlilar ya'ni kapalaklar (Lepidoptera) turkumi vakillarining qanotlari mayda tangachalar bilan qoplangan. Qanot rangi ana shu tangachalardagi pigmentga

bog'liq. So'ruvchi xartum tipidagi og'iz organlari spiral shaklda boshi ostida taxlangan. Qurtlarida uch juft ko'krak oyoqlari bilan birga 3-5 juft soxta qorin oyoqlar ham bo'ladi. Qorin oyoqlar bo'g'imlarga bo'linmagan, ularda tirnoqlar o'rniga so'rg'ichlar rivojlangan. Ko'pchilik kapalaklar qurtlari ochiq holda yashaydi. Ular orasida o'simlik to'qimalari va tuproqda hayot kechiradigan turlari ham bor. G'umbaklari yopiq tipda tuzilgan. Voyaga yetgan kapalaklar gul sharbatini so'rib oziqlanadi. Bir qancha kapalaklarning og'iz organlari reduksiyaga uchragan, voyaga yetgan yetgan davrida oziqlanmaydi. Qurtlari o'simlik to'qimalari bilan oziqlanadi [1].

Kapalaklarning o'ziga xos chiroyi odamlarni doimo jalb etib kelgan. Bu esa ularning insonlar tomonidan ko'plab tutilishiga sababchi bo'ladi. Shuningdek, kapalaklar uchun qulay bo'lgan biotsenozlarning antropogen omillar ta'sirida qisqarishi, tabiiy holatining buzilishi ham ular sonining keskin qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababdan ularning bir nechta turlari Xalqaro va O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan, yana bir nechta turlarini esa bu kitobga kiritilishi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Quyida biz O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan, Samarqand viloyati hududida uchrovchi tangachaqanotlilar vakillarining tarqalishi va yashash joylari haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

Shtaudinger apolloni - Parnassius stadudingeri. G'arbiy Pomir-Oloy, Hisor tog' tizmalarida, Buysuntog', Zarafshon tog' tizmalari, Turkiston tog' tizmalarining g'arbiy chekka qismlari, Turkiston tog' tizmalarining markaziy qismlari uchraydi. O'zbekistonda 3 ta kenja turi mavjud.

Yashash joylari. Dengiz sathidan 2550-3000 m balandliklarda, xilma-xil o'simliklar bilan qoplangan adirlar va qoplamali qoyalarda.

Cheklovchi omillar. Imagolarining nazoratsiz terilishi va me'yoridan ortiq o't o'rimi, chorva mollarining ko'p o'tlashi.

Tyan-Shan apolloni - Parnassius tianschanicus. Tabiiy hududi O'rta Osiyo tog'lari. O'zbekistonda Chotqol, Piskom, Ugom, Qorjontov, Qurama tog' tizmalari, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Boysuntog', Hisor tizmalarida tarqalgan.

International Conference on Education and Innovation

Yashash joylari. Dengiz sathidan 2550-3000 m balandlikda, xilma-xil o'simliklar bilan qoplangan adirlar va qoplamali qoyalarda.

Cheklovchi omillar. Chorva mollarining me'yorsiz darajada o'tlatilishi natijasida ushbu turlar yashaydigan joylarda ularning qurtlari va ozuqa o'simliklarining toptalishi.

Tengsiz alvonchi - *Lycaena dicpar*. Uchrash joyi G'arbiy Tyan-Shan, Jizzax va Samarqand vilovati.

Yashash joylari. Tekislik va o'rta balandlikdagi tog'larning (d.s.b. 500-1000 m) namlangan o'tlarga boy qismlari, ba'zan vohalar.

Cheklovchi omillar. Yashash makonlarida qo'riqlarni haydash, daraxt va butalarni kesish, pichan tayyorlash va chorvani haddan tashqari ko'paytirish natijasida qisqarishi.

To'qay feruzaqanoti - *Glaucopsyche charibdis*. Surxondaryoning Ko'kaydi, Oqqo'rg'on qishlog'i va Zarafshon vodiysining Samarqand shahri yaqinida uchraydigan, keskin kamayib borayotgan tur.

Yashash joylari. Tekislik daryolari qirg'oqlaridagi turang'i to'qaylar va ularning atroflari, sug'orish kanallari bo'ylab sug'oriladigan yerlarga qaytadan kirishi mumkin.

Cheklovchi omillar. Xo'jalik faoliyati oqibatida to'qaylarning hamda ozuqa o'simligining yo'q qilinishi.

Turang'i arvohipkalagi - *Laothoe philerema*. Surxondaryo, Zarafshon (Samarqand sh.), Amudaryoning (Qizilravot q.) quyi qismlarida tarqalgan.

Yashash joylari. Pasttekislik daryolari bo'yidagi turang'illi to'qay va daraxtzorlar.

Cheklovchi omillar. Xo'jalik faoliyati oqibatida to'qaylarning kesib tashlanishi.

Hisor arvohipkalagi - *Acosmeryx naga*. Omonqo'ton qishlog'i, Soyg'us atrofi, Jinnidaryo, , To'palang daryo, Sangardak (Hisor t.) vohalarida uchratilgan.

Yashash joylari. Dengiz sathidan 1100-1600 metrgacha balandlikdagi tog' biotsenozlari, hamda vodiylarining daraxt va butali chakalakzorlari.

Cheklovchi omillar. Daraxt va butalarning kesib tashlanishi, ozuqa o'simligining yo'q qilinishi.

Qizil kitobga kiritilgan Samarqand hududida uchraydigan, tangachaqanotlilar turkumi vakillarining yashash tarzi.

Shtaudinger apalloni- bir yilda bitta nasl beradi. Iyun oyida g'umbakli pillalari tuproqda bo'ladi. Kamdan-kam hollarda noqulay sharoitda qishlashi mumkin. Imagolarining uchib chiqishi avgustda ro'y beradi. Odatda, tuxum qobiqlarini yorib chiqqan 1-yoshdagi qurtlari qishlaydi. Urg'ochilari 50 tagacha tuxum qo'yadi.

Tyanshan apolloni – bir yilda bitta nasl beradi. Iyunda nozik pillali g'umbaklari bo'ladi, iyulda imagolari uchib chiqadi, tuxum va qurtlari ozuqabop o'simliklar va ozuqa substratlarigayaqin joyda uchraydi. 1-yoshdagi qurtlari tuxum qobiqlari ostida qishlaydi. Ular *Pseudsedum* va *Rhodiola* avlodi o'simliklari bilan oziqlanadi. Tosh taglari va barg to'shamalari ostida g'umbakka ketadi. Kapalaklarning uchib chiqishi va tuxum qo'yishi iyundan avgustgacha kuzatiladi. 50 donagacha tuxumlarini qurtlarining ozuqa o'simliklariga qo'yadi.

Tengsiz alvonchi – joyning mutlaq balandligiga qarab bir yilda 1-2 marta nasl beradi. Uchishi va tuxum qo'yishi – may-iyunda, ba'zan esa avgust-sentabrda. Qurti iyunda otquloq (*Rumex*) va suvzamchilarda (*Poligonum*) yashaydi. G'umbagi qishlaydi.

To'qayferuzaqanoti – kam o'rganilgan. Bir yilda bir marta nasl beradi. Ilk uchishi va tuxum qo'yishi – aprel-mayda. Qurti qizilmiyada (*Glycyrrhyza glabra*) yashaydi.[2]

Turang'i arvochkapalagi - Yilda 2 marta nasl beradi. Ilk uchishi va tuxum qo'yishi – aprel-mayda (tunda), 2-martasi – iyul-avgustda. Qurti iyun va avgust-sentyabrda rivojlanadi; tuproqning yuqori qatlamlarida g'umbakka aylanadi; kuzgi g'umbaklari qishlaydi.

Hisor arvochkapalagi - Yiliga bir marta to'la va bir marta qisman nasl beradi. Birinchi uchishi va tuxum qo'yishi – aprel-mayda (tunlari), ikkinchisi – avgust-sentyabrda. Qurtlari yovvoyi tokda, ba'zan madaniy tokzorlarda iyun-iyul va sentyabr-noyabrda rivojlanadi. Tuproqning yuqori qatlamida o'ta nam joylarda g'umbakka aylanadi. G'umbaklarning birinchi nasli qisman va ikkinchi nasli to'liq qishlaydi.

Shunday qilib, Samarqand viloyati hududida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan tangachaqaqnotlilarning o'ndan ortiq turlari uchraydi. Ularning populyatsiyasi va yashash arealining qisqarib borishiga asosiy omillar sifatida antropogen omillar yashash makonlarida qo'riqlarni haydash, daraxt va butalarni kesish, pichan tayyorlash va chorvani haddan tashqari ko'paytirish kabilarni keltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mavlonov O., Saparov K., Toshmanov N. "Zoologiya (umurtqasiz hayvonlar) "Navro'z nashriyoti" Toshkent-2018
2. O'zbekiston Respublikasining "Qizil Kitobi" II jild. Toshkent. 2019
3. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonlar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Chinor ENK, 2003.- 2-tom: Hayvonlar. - 238 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 2-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2006. - V. 2: Hayvonlar. - 216 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvonlar turlari: 2 jildda – 3-nashr. - Toshkent: Chinor ENK, 2009. - V. 2: Hayvonlar. - 217 b.